

ISLOM KARIMOVNING XALQ XOTIRASIDA MANGU SAQLANIB
QOLISHIGA SABAB BO'LGAN HARAKATLARI

Turg'unova Gulzoda Botir qizi

University of Business and Science Maktabgacha va maktab ta'limi fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2 – kurs talabasi

gulzodabotirovna96@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning hayoti, siyosiy faoliyati va millat ravnaqiga qo'shgan beqiyos hissasi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Islom Karimovning xalq xotirasida mangu saqlanib qolishiga sabab bo'lgan omillar, uning mamlakatda barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashdagi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Islom Karimov, mustaqillik, prezident, milliy g'oya, istiqlol ramzi, milliy qadriyatlar, madaniy meros, siyosiy islohotlar, buyuk shaxs, xotira va ehtirom, yodgorlik

Islom Abdug'aniyevich Karimov (1938–2016) – O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, mustaqil O'zbekistonning asoschisi, siyosiy va davlat arbobi. Uning hayoti va faoliyati O'zbekiston tarixining eng muhim davrlaridan biriga to'g'ri keladi.

Islom Karimov 1938-yil 30-yanvar kuni O'zbekistonning Samarqand viloyati Feruza qishlog'ida dunyoga kelgan. Ular oilada uch nafar farzand bo'lgan. Karimovning ota onasi oddiy dehqonlar bo'lishgan. U Samarqanddagi 5-sonli maktabda tehsil olgan va u ko'proq matematika faniga qiziqardi. Keyinchalik, u Toshkentdagi eng nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Toshkent davlat universitetining iqtisod fakultetini tamomlagan. Universitetda ta'lim olish jarayonida u ko'plab ilmiy va ijtimoiy faoliyatlarga qo'shilib, o'zining salohiyatini namoyon etgan. 1960-yollarning oxirlarida Karimov siyosiy faoliyatini boshlaydi va birinchi Samarqand viloyati partiya tashkilotida ishlaydi. So'ngra, 1970-yillarning boshlarida O'zbekiston Kommunistik Partiyasining birinchi kotibi bo'lib ishlaydi va bu lavozimda o'zining siyosiy salohiyatini ko'rsatadi hamda davlatning boshqaruv tizimida muhim o'rin egallaydi. Karimov 1989-yilga O'zb.Kommunistik Partiyasining birinchi kotibi sifatida partiya rahbariyatiga yetakchilik qildi. Sovet Ittifoqining qulashi bilan, 1991-yil 31 avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi. Islom Karimov mamlakatning birinchi Prezidenti sifatida tanlandi va davlatning mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Uning rahbarligida O'zbekiston yangi konstitutsiya, qonunlar, valyuta va siyosiy tizimga ega bo'ldi. Karimovning maqsadi xalqni birlashtirish, mamlakatni rivojlantirish va mustaqillikni mustahkamlash edi. Islom Karimov O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida shakllantirish uchun ko'plab islohotlarni amalga oshirgan. Uning boshchiligida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirildi, mamlakatning iqtisodiy mustahkamligini ta'minlashga e'tibor qaratildi. Xususan, 1994-yil 1 iyulda O'zbekiston milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi. Bundan tashqari, Karimov

1996-yil Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarini va boshqa xalqaro tadbirlarni tashkil etildi, mamlakatni jahon sahnasida tanitishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Karimov, shuningdek, milliy g'oya va ma'naviyatni rivojlantirishni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi deb bilgan. U milliy qadriyatlarni tiklash va yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash uchun ko'plab loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga ulkan hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kabi asarida ham u jamiyatda ma'naviy taraqqiyotning ahamiyatini ta'kidlagan. Karimovning rahbarligi davrida O'zbekistonning xalqaro aloqalari jadal rivojlangani ko'rishimiz. U xalqaro maydonlarda O'zbekistonimizning mustaqil siyosatini himoya qilgan va mustahkamlagan. Karimovning siyosiy faoliyatida xalqaro iqtisodiy hamkorliklari, mintaqaviy xavfsizlik masalalari va mamlakatimizning xalqaro tashkilotlardagi o'rnini doimo muhim o'rin tutgan. Islom Karimov 2016 yil 2 sentyabrda Toshkentda vafot etdi. Uning vafoti O'zbekistonning siyosiy tarixida katta yo'qotish bo'ldi. Karimovning merosi hozirgi kunda O'zbekistonning rivojlanishi, milliy g'oya, ma'naviyat va mustaqillikning shakllanishida davom etadi. Uning xotirasi xalq orasida hurmat va ehtirom bilan yod etiladi. Karimov bir nechta kitob va maqolalar muallifi bo'lgan. Uning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida", "Avlod orzusi" kabi asarlari mamlakat siyosati va ma'naviyati haqida keng qamrovli ma'lumotlar beradi va hozirgacha berib kelmoqda. Bu asarlar O'zbekistonning mustaqilligi va rivojlanishi, shuningdek, milliy qadriyatlarni saqlash va yangi avlodni tarbiyalashda muhim manbalar sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Islom Karimovning mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti sifatida 1991-yildan 2016-yilgacha, ya'ni 25 yil davomida mamlakatni boshqardi. U o'zining rahbarligi davrida O'zbekistonning mustaqillikni mustahkamlash uchun o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasini xalqaro maydonda tanitishda hech qachon mehnatini ayamadi. Quyidagi jummalarda Islom Karimov tomonidan bajarilgan bir qancha islohotlarni ko'rishimiz mumkin:

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi Karimovning siyosiy faoliyatini eng muhim bosqichlaridan biri edi. Chunki, 1991-yil 31 avgustda qabul qilingan "Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun" mamlakatni yangi taraqqiyot yo'liga boshladi. Bu davrda iqtisodiy qiyinchiliklar, siyosiy bosim va ijtimoiy muammolar mavjud bo'lsa-da, Karimov xalqqa ishonch va jasorat bag'ishladi.

Karimovning davlat boshqaruvidagi asosiy yondashuvlari ichki barqarorlik, milliy manfaatlarni himoya qilish va xalqaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan edi. Chunki Islom Karimov davlatimiz hokimiyatini mustahkamlash uchun yangi konstitutsiya qabul qildi, asosiysi esa iqtisodiy islohotlarni yo'lga qo'ydi va kuchli ma'naviy siyosatni targ'ib qilishni boshladi.

Milliy g'oya – bu Karimov siyosatining ma'naviy asosi bo'lib, u xalqni birlashtiruvchi va davlatni mustahkamlovchi asosiy tushuncha sifatida qaraldi. Asosan bu g'oya orqali milliy o'zlikimizni, an'ana va qadriyatlarimizni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan edi. Bu borada esa Karimov milliy g'oyani yoshlarni tarbiyalashda asosiy yo'nalish deb hisoblagan.

Davlatning mustaqilligini aks ettiruvchi bayroq, gerb va madhiyalar yurtboshimiz Islom Karimov boshchiligidagi ishlab chiqilgan. O'zbekistonning bu ramzlari esa xalqning milliy ruhini va tarixiy an'alarini ifodalash bilan birga, xalqaro maydonda davlat suverenitetini namoyon qilgan.

Karimov milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga juda katta e'tibor qaratdi. Chunki, mustaqillik yillarida xalqning diniy e'tiqod erkinligi ta'minlash, tarixiy an'alar va urf-odatlar qayta tiklash juda zarur edi. Navro'z, Ramazon va Qurbon hayitlari davlat bayramlari sifatida e'tirof etildi. Barqarorlik davlatning mustahkamligi va taraqqiyoti uchun asos bo'ldi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek Karimov iqtisodiyotni qayta shakllantirdi, milliy valyuta – so'mni muomalaga kiritdi va davlat boshqaruvini mustahkamlash orqali barqarorlikka erishdi.

Xalqning qalbida Karimovning xizmatlari doimo esda qoladi. Buning uchun ko'plab sabalar keltirishimiz mumkin, negaki uning mehnati tufayli O'zbekiston bugungi kun muvaffaqiyatlariga erishdi. Toshkent va Samarqanddagi yodgorliklar bu xotiraning ramziga aylangan. Karimov rahbarligida tarixiy obidalarni tiklash va asrash davlat siyosatining muhim qismiga aylandi. Samarqand va Buxorodagi tarixiy inshootlar, madrasalar va masjidlar YUNESKO ro'yxatiga kiritildi.

Islom Karimov e'tiborini ko'proq yoshlarga qaratganing sababi, u yoshlarni davlatning kelajagi sifatida ko'rdi. Ularning ta'lim va tarbiyasiga katta ahamiyat berildi. Yoshlarga innovatsion fikrlash va vatanparvarlik ruhini singdirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi deb bilardi.

Islom Karimov diniy qadriyatlarni tiklash va himoya qilishga ham katta e'tibor qaratdi. U o'zining rahbarligida diniy jamiyatning ajralmas qismi sifatida rivojlantirish, diniy erkinlikni ta'minlash va diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish siyosatini olib bordi. Mustaqillik yillarida 2000 dan ortiq masjidlar qayta tiklandi va qurildi. Diniy ta'lim tizimi rivojlantirildi bu borada esa ilmga chanqoq yoshlar uchun Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Buxorodagi Mir Arab madrasasi va boshqa tarixiy inshootlar qayta tiklandi.

Mustaqillik poydevori Karimovning o'z vaqtida amalga oshirgan siyosiy va iqtisodiy islohotlari bilan mustahkamlandi. Xususan, konstitutsiya qabul qilindi, yangi qonunlar ishlab chiqildi va milliy valyuta muomalaga kiritildi. Mustaqillik poydevoriga qo'yilgan eng muhim tamoyillar: suverenitetni himoya qilish, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish va xalqning ma'naviy tiklanishini ta'minlash bo'lgan.

Islom Karimov rahbarligida siyosiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. U boshqaruv tizimini mustahkamlash, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida demokratik davlat barpo etish va inson huquqlarini himoya qilishni asosiy vazifa qilib qo'ygan edi. Davlatning ichki siyosatida ijtimoiy barqarorlikni saqlash va qonun ustuvorligini ta'minlashga alohida e'tibor berildi. Karimov O'zbekistonning siyosiy tarixida buyuk shaxs sifatida alohida o'rin egalladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning siyosiy strategiyasi, iqtisodiy islohotlari va xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yishdagi mehnati tufayli

O'zbekiston xalqaro maydonlarda tan olindi. Negaki u xalqni birlashtirish va milliy o'zlikni tiklashda beqiyos xizmat qilganni ko'rishimiz mumkin.

Islom Karimov vafotidan keyin Toshkent va Samarqandda ko'plab ko'chalar va muassasalarga uning nomi berilgan. Samarqandda uning nomiga atab maqbara qurilib, ziyoratgohga aylantirildi va bu har yili 2-sentyabrda Karimovning xotirasi ehtirom bilan yodga olinadi. Bu, nafaqat rahbar sifatida, balki milliy g'urur timsoli sifatida Karimovga ko'rsatilayotgan hurmatdir.

Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkentda va Samarqandda yodgorliklar qurilgan. Toshkentdagi yodgorlik majmuasi davlat mustaqilligining ramzi sifatida qad ko'targan. Ushbu yodgorliklar xalqning o'z tarixiga bo'lgan hurmatining yorqin timsolidir. Toshkent Karimov faoliyatining siyosiy markazi sifatida katta o'rin tutgan. Samarqand esa Karimovning tug'ilib o'sgan shahar sifatida uning ma'naviy ildizlari va bolalik xotiralarini aks ettiradi. Samarqandda Karimov xotirasiga bag'ishlangan ko'plab tadbirlar va yodgorliklar tashkil qilingan.

Islom Karimovdan avlodlar uchun qolgan asosiy meros – mustahkam davlat, milliy qadriyatlar va ma'naviy boylikdir. U yoshlarga katta ishonch bildirgan va kelajakni ularning qo'lida ko'rgan. "Avlod orzusi" asarida yoshlarning bilimli, madaniyatli va vatanparvar bo'lib tarbiyalanishi muhimligi ta'kidlangan.

Milliy o'zlikni tiklash Karimov siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri edi. U xalqning tarixiy ildizlarini eslash, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirishni birinchi darajali vazifa sifatida qo'ygan. Karimov o'z asarlarida tarixni bilish va undan saboq olishni doim o'targ'ib qilgan.

O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga asos bo'lgan taraqqiyot poydevori Karimov tomonidan yaratilgan islohotlar natijasidir. Xalq xo'jaligini mustaqil qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va sanoatni rivojlantirish orqali mamlakat barqaror rivojlanish yo'liga chiqdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining otasi, rahnamosi va tayanchi bo'lgan Islom Karimovning vafotidan so'ng barcha yurtdoshlarimizning chuqur qayg'uga tushkanliklariva xattoki xorijiy davlat rahbarlari, fuqarolarining g'amga tushganlarini ko'rib Prezidentimiz millionlab insonlarning qalbidan qay darajada mustahkam joy egallaganligini ko'rsatgan edi. Bunga esa, marhum yurtboshimizning, qaysi lavizim va ishda bo'lmasin, o'zining mard va jasurligi va asosiysi, har bir ishda adolatli bo'lgani ko'rganmiz. Sababi, Karimov Prezident lavozimiga saylanganidan boshlab toki vafotiga qadar qilgan islohitlari buning dalili deyishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytsek, Islom Karimov o'zining mustaqillik yo'lidagi jasoratli qarorlari, xalqni birlashtirgan siyosati va milliy ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan xizmatlari bilan xalq qalbida abadiy iz qoldirdi. U O'zbekistonning yangi tarixini yaratgan rahbar sifatida milliy g'urur va erkinlik timsoliga aylandi. Karimovning yorqin siymosi, yuksak g'oyalari va amalga oshirgan ishlari avlodlar xotirasida mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotalar

1. Islom Karimov. Баркамол авлод орзуси. Тошкент:.1999. “Шарк”.7-12 betlar.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent:.2008. “O'zbekiston”. 71-102 betlar.